
TOSHLOQDA “YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASI DAVOM ETMOQDA

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “Axshak” MFY hududida O‘zbekiston Ekologik harakati hududiy bo‘linmasi hamda O‘zbekiston Ekologik partiyasi viloyat kengashi tashabbusi bilan ko‘chat ekish tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Shu kuni tuman kengashi deputatlari, mahallalar faollari, nuroniylar va yoshlar ishtirokida “Yashil makon” loyihasi doirasida manzarali ko‘chatlar ekilib, “Yashil bog‘i” barpo etildi.

Bunday sa‘y-harakatlardan ko‘zlangan asosiy maqsad — yurtimizni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishiga yaqindan ko‘maklashish orqali xalqimizga xos ezgu fazilatlarni yuksaltirish, ularni yoshlar qalbiga singdirish hamda qishloq va mahallalar hududlarini, aholi turar joylari atrofini bundan-da ko‘rkam ko‘rinishga keltirishdan iboratdir.

2023-11-25 12:44:51